



LAFONTEN MASALLARINING G'OYAVIY, BADIY XUSUSIYATLARI

Norboyeva Nuriniso Usan qizi

Nnuriniso2001@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7536216>

ARTICLE INFO

Received: 03rd January 2023

Accepted: 12th January 2023

Online: 14th January 2023

KEY WORDS

Masal, majoziy obrazlar, ibrati xulosa, ma'noviy g'oya, ijtimoiy illatlar, badiiy xususiyat, g'oyaviy xususiyat.

ABSTRACT

Masalchilik janrda Lafonten masallarining o'ziga xosligi, ularda qo'llanilgan g'oyaviy, badiiy xususiyatlarning ustivorligi.

Masal - axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi. Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

«Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan "yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, "Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan».

Feodal istibdodi sharoitlarida yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli fransuz shoiri Lafontenning masallari ham badiiy adabiyotda tutgan o'rni bilan mashhurdir. Jan de Lafonten 17-asrda nashr etilgan "Les Fables" asari bilan jahon adabiyotida masalchilik janrining rivojiga sezilarli darajada hissa qo'shgan ijodkordir. Uning har bir masalida bir yoki bir nechta misralarda hikoyaning boshida yoki oxirida namoyon bo'ladigan axloqiy, yashirin yoki aniq tarbiyaviy xulosalar mavjud. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, Lafonten masallaridagi xulosalar hayotiy saboq bo'lib, o'quvchidan ziyraklikni talab qiladi. Ulardagi ma'noviy g'oya esa yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlashga, oq-qorani tanishga xizmat qiladi, yovuzlikka, nohaqlikka hamda axloqsizlikka qarshi turadi. Lafonten ijod qilgan asrdagi ijtimoiy muhit avvalo uning ijodiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. U



o'z ijodi orqali o'sha davrdagi kishilar xulq-atvoriga, xatti-harakatlari ga, xususan, "Quyosh qirol" laqabli hukmdor Lyudovik XIV saroyidagi ayrim shaxslar orasida illatlarga ishora qildi.

Masalan, "Qarg'a va Tulki" (Corbeau et Renard) masalida tulkining ushbu gaplari orqali uning ayyorligi va langanbardorligi xususiyatini anglab olish qiyin emas :

"Hé ! bonjour Monsieur du Corbeau

Que vous êtes joli ! que vous me semblez beau !

Sans mentir, si votre ramage

Se rapporte à votre plumage

Vous êtes le phénix des hôtes de ces bois'

Yozuvchining asosiy maqsadi esa bu kabi qahramonlar orqali o'sha davr kishilarining ayrim bu kabi ilatlarini fosh etishdan iboratdir va ushbu masal haqida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin

"Bilginki, har bir xushomadgo'y uni tinglaganning hisobidan yashaydi". O'quvchi bu o'rinda aqlni qanday saqlashni bilish kerakligini tushunadi, ayniqsa, odam bizga xushomadgo'ylik qilganda va nima eshitishni xohlayotganimizni aytadi. Tulki pishloqni ega bo'lishni istab , qarg'aga xushomad qila boshlaydi va qarg'a tulkining iltifotiga juda berilib, u o'z ozuqasidan ayriladi. Bu esa qarg'aning qanchalar sodda va go'lligini ko'rsatadi. Bu o'sha davrdagi ayrim saroy a'yonlari orasidagi kishilarning o'rtasida ko'plab marotaba yuz kelgan vaziyatlarni ko'rsatib berish uchun ushbu obrazlar badiiylashtirilgandir .

Shuningdek Lafonten ijodining nodir na'munalaridan biri hisoblangan

"Bo'ri va qo'zichoq" haqidagi masalning xulosasi esa quyidagichadir :

"La raison du plus fort est toujours la meilleure".

Ya'ni; Eng kuchlining sababi har doim eng yaxshisidir. Masalning boshidayoq xulosa bor. Jan de Lafonten bu masali orqali esa o'z jamiyatini keskin tanqid qilishga urinadi. U soxta adolatni zo'ravonlik va kuch ramzi sifatida talqin etadi. Aybsizlik va poklikni ifodalovchi qo'zichoq katta kuchga ega bo'lgan yirtqich bo'riga dosh bera olmaydi, xuddiki oddiy, nohaq xalq kabi "adolat" qurboni bo'ladi.

"Shahar kalamushi va dala kalamushi" (Le Rat des villes et le Rat des champs) masalining asosiy mazmuni ikkita kemiruvchilar ilgari surgan ikki xil hayot tarzi ikki xil dunyo qarashni ilgari surish bilan ifodalaniladi.. Daladagi, qishloqdagi hayot bu ertakdan so'ng, shahar hayotidan ko'ra tinchroq, shovqinli va xavf-xatardan yiroqligini o'zida mujassam etgandek ko'rinadi. Yana shuni qo'shimcha kerakki, shaharlik o'zini boshqalardan ustun deb hisoblaydi, va bu esa aynan insonlarga xos xususiyatdir . Jan de Lafonten bu asari orqali o'z jamiyatining individual va jamoaviy nuqsonlarini, kamchiliklarini insonlarga xos kiborlikning rasmini ijod qalami bilan tasvirga tushirishga uringan ijodkordir.

Lafonten ijodining yorqin na'munalaridan biri "Chigirtka va chumoli"(la Cigale et la Fourmi) masalidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, har doim halol mehnat qilib , halol rizq topgan inson hech qachon xor bo'lmasligi, kishi mehnati orqaligina saodat topishi mumkinligi haqida so'z boradi. Garchi hajm jihatidan katta masal bo'lmasada, uning asosiy va badiiy g'oyasi o'quvchini ziyorlikka mehnatsevalikka bo'lgan muhabbatga chorlaydi . Xususan ushbu masalning e'tibor markazida bo'lgan chigirtka (la Cigale) asar boshida quyidagi shaklda talqin etiladi:

La Cigale, ayant chanté, Tout l'été (butun yozni , kuylab o'tkazgan chigirtka)



Masalning aynan shu shaklda boshlanishi chiugirtka obrazining dangasilik xususiyatini namoyon etishga xizmat qiladi .Shuningdek u vaqtni hech narsa qilmasdan bekor o'tkazishining mukofoti sifatida qishda och qolishi hamda ozuqa izlab mehnatkash Chumolinikigaborishi esa o'quvchi uchun haqiqiy ibrat na'munasidir:

Elle alla crier famine Chez la Fourmi sa voisine, (U ochlikdan qiynalib, qo'shnisi chumolinikiga bordi)

Masal she'riy shaklda yozilib, undagi ohangdorlik o'quvchini yanda diqqat bilan o'qishga undaydi. Bu masal yakunidagi Chumolining Chigirtkaga bergan javobi ham o'ziga xosligini ko'rsatgan .

-Vous chantiez ? j'en suis fort aise. Eh bien! dansez maintenant. (Siz kuyladingiz?,men bundan juda xursandman, endi esa raqsga tushing.)

Lafonten asarlaridagi g'oyaviy xususiyat ustunligining mavjudligi aynan shu masalda badiiy shaklda namoyon etilgani yorqin misoldir . Ya'ni yozuvchi Chumolini saxiy obraz emas , mehnatsevar shaklda tasvirlashida ham muhim ma'no mujassam bo'lgandir . Aks holda Chigirtka o'z yalqovligidan pushaymon bo'lmagan va ushbu xatoni yana ko'p bor takrorlagan bo'lardi.

Chumoli yoz bo'yi qattiq mehnat qildi, chigirtka yoz bo'yi qo'shiq kuylab kunini rohat – farog'atda o'tkazdi. Shunday qilib, u chumolidan farqli o'laroq, qish davomida rizqsiz qoladi! Demak, asosiy xulosa shundaki, mehnat har doim mukofotlanadi va bu uzoq vaqt davomida sayr qilish, dam olish va eng muhim narsani ertaga qoldirish g'oyasiga ziddir.

Xulosa qilib aytilganda Lafonten ijodi jahon adabiyotida o'ta muhim o'ringa ega bo'lib, uning o'zgacha ijod usuli hali bugungi kungacha takrorlanmas ekanligi ma'lum bo'lib kelmoqda. Uning asarlaridagi g'oyaviy, badiiy xususiyatlar ustuvorligi , falsafiy qarashlarning yetukligi hattoki yosh bolalarni ham idrok etishga, g'oyaviy xulosalar chiqarishga undaydi.

References:

1. N Bolova " Janr xususiyatlari
2. Ziyoliyat zamonaviy mahalliy adabiyot" <https://excerpts.numilog.com/>
3. R. Natjmy "Ziyochi", "Sofiya", 2004 yil.
4. Qomus info
5. La Fontaine "Fables"
6. <https://cache.media.eduscol.education.fr/file/Morale>
7. <https://excerpts.numilog.com/>